

«UzAuto Motors» AJ  
XARID XUJJATLARI



22ZD-9024-00187

2022-09-07

1	Mavzu	“UzAuto Motors” AJ Xorazm viloyati filiali hududida joylashgan yozgi oshxona binosini joriy ta’mirlash
2	Loyiha maqsadi	““UzAuto Motors” AJ Xorazm viloyati filiali hududida joylashgan yozgi oshxona binosini joriy ta’mirlash” obyekti qurilish-montaj ishlarini bajarish uchun pudratchi tashkilotlarga etender.uzex.uz portalida e’lon joylashtirish
3	Loyihani taxminiy narxi	294 754 549 so’mni QQS bilan tashkil qiladi
4	To’lov shartlari	Shartnoma imzolangan kundan boshlab 10 (o’n) bank ish kuni ichida shartnomaning umumiy miqdoridan 15% (o’n besh) oldindan to’lov, shartnomaning umumiy miqdironing 85% (sakson besh) miqdori ishlar bajarilganligi to`g`risidagi akt tuzilib, bajarilgan ish turlariga nisbatan to’lov bajariladi.
5	Loyihaning texnik tasnifi	Bajariladigan xizmatning texnik tavsiflari "Kapital qurilish" bo`limi tomonidan taqdim qilingan. Loyiha texnik tomonidan baholanadi. (Texnik tavsif ilova qilinadi).

Komissiya raisi

**Boshqaruvchi direktor**  
*Xorazm viloyatidagi Pitnak sh.*  
*“UzAuto Motors” AJning filiali*



2022-09-07 09:04

**S. M. Jumaniyazov**  
2022-09-07 09:03

Komissiya a’zolari

**Bosh yuriskonsult**  
*Bosh Yuriskonsult*



2022-09-06 13:22

**P. O. Xo’janiyazov**  
2022-09-06 10:40

**Bo'lim boshlig'i**

*Texnologiya va texnik xizmat  
ko'rsatish*



2022-09-06 10:59

**B. A. Paluanov**

2022-09-06 10:40

**Bo'lim boshlig'i**

*Narhlarni rejalarashtirish va nazorat  
qilish bo'limi*



2022-09-07 08:59

**M. M. Madrimov**

2022-09-06 10:40

**Bo'lim boshlig'i**

*Buxgalterlik va moliya bo'limi*



2022-09-06 12:54

**S. S. Qilichev**

2022-09-06 10:40

**Bo'lim ichida rozilik****Boshqaruvchi direktor o'rbinbosari**

*Boshqaruvchi direktor o'rbinbosari*



2022-09-06 10:40

**B. B. Quryazov**

2022-09-06 10:35

**Bo'lim boshlig'i**

*Kapital qurilish bo'limi*



2022-09-06 10:35

**O. Q. Ro'ziyev**

2022-09-06 10:35

**Mas'ul****Bo'linma boshlig'i**

*Yangi loyihamlar, shartnoma va  
iqtisodiy-tahliliy ishlarni  
o'zlashtirish bo'linmasi*



2022-09-06 10:35

**O. Q. Ro'ziyev**

2022-09-06 10:35

## **TANLOV XUJJATLARI**

“UzAuto Motors” AJ Xorazm viloyati filiali hududida joylashgan yozgi oshxona  
binosini joriy ta’mirlash

**Buyurtmachi:** «UzAuto Motors» AJ Xorazm viloyati filiali

Pitnak – 2022 y.

## **MUNDARIJA**

- I. Tanlov qatnashchilariga yo'riqnomा
- II. Tanlov texnik qismi.
- III. Tanlov narx qismi.
- IV. Shartnoma loyihasi.

## I. TANLOVDA IShTIROK ETISh UChUN KO'RSATMA

1	<b>Umumiy xolat</b>	1.1	Mazkur tanlov xujjatlari O'zbekiston Respublikasi quyidagi qonun talablariga muvofiq ishlab chiqilgan. O'RQ-684 sonli «Davlat xaridlari to'g'risida»gi (keyingi o'rnlarda – «Qonun») qonuni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 20-fevral kungi «Loyihaoldi, loyiha, tender hujjatlari va kontraktlarni ekspertizadan o'tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi №PF-3550 sonli (keyingi o'rnlarda – «Farmon») farmoni xamda «Xarid qilish tartibtaomillarini tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi buyruq (Adliya Vazirligi ro'yxat raqami 26.05.2018 y. kungi №3016 (keyingi o'rnlarda – «Nizom»)).
		1.2	Tanlov mavzusi: <b>“UzAuto Motors” AJ Xorazm viloyati filiali hududida joylashgan yozgi oshxona binosini joriy ta'mirlash</b>
		1.3	Tanloving minimal qiymati va valyutasi tanlov xujjatlarining narx qismida ko'rsatilgan.
		1.4	Sotib olingan tovarlar (xizmatlar, ishlar) uchun texnik topshiriqlar tanlov xujjatlarining texnik qismida keltirilgan.
		1.5	Tanlov komissiyasining takliflarni ko'rib chiqish shakli - elektron xolda
2	<b>Tanlov tashkilotchilari</b>	2.1	Tanloving buyurtmachisi «UzAuto Motors» AJ Xorazm viloyati filiali (Keyingi o'rinda “Xaridor” deb nomlanadi). Mijozning yuridik manzili: O'zbekiston Respublikasi, Pitnak shaxri, Xazarasp ko'chasi, №1 “Xaridor” xaqida malumot: MFO 01169, INN 200244767, x/r 2022 4000 9005 3230 5053 «Asaka» bank Xorazm viloyati filiali
		2.2	Mijozlar bilan bog'lanish: Yangi loyihalarni o`zlashtirish, shartnomalar va iqtisodiy-tahliliy ishlar bo`linmasi muhandisi R.A.Jumaniyazova Elektron pochta manzili: Rayxon.Jumaniyazova@uzautomotors.com Ish telefoni. 99878-1502200 (vnutr. , 48-39)
		2.3	Tanlov komissiyasining ishchi organi “UzAuto Motors” AJ Xorazm viloyati filialining Kommunal xizmati va kapital qurilish bo`limi, Yangi loyihalar, shartnomalar va iqtisodiy-tahliliy ishlarni o`zlashtirish bo`linmasi (keyingi o'rinda “Ishchi organ” deb ataladi).
		2.4	Shartnoma egasi: AO «UzAuto Motors» AJ Xorazm viloyati filiali.
		2.5	Tanlov xujjatlari qonunga muvofiq besh kishidan tashkil topgan komissiya tomonidan baholanadi.

<b>3</b>	<b>Raqobatchilar</b>	3.1	Tanlovda O'zbekiston Respublikasi rezidentlari va norezidentlari ishtirok etishlari mumkin ushbu tanlov xujjalaringin 4.2-bandida ko'rsatilgan shaxslar bundan mustasno.
<b>4</b>	<b>Tanlov tartibi</b>	4.1	<p>Tanlovda qatnashish uchun tanlov qatnashchilari:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>a) Tanlov shartlari bilan tanishish uchun maxsus axborot portalida joylashtirilgan tanlov xujjalaringin elektron nusxasini olish (yuklab olish) va o'rganib chiqish;</li> <li>b) Ushbu yo'riqnomaning talablariga muvofiq malaka xujjalari va tanlov taklifini taqdim etishi kerak;</li> <li>b) O'z taklifini, uning amal qilish muddati davomida kafolatini ta'minlash bo'yicha kafolat xati berishi kerak.</li> </ul>
		4.2	<p>Tanlovda quyidagi ishtirokchilar qatnashishi mumkin emas.</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- Qayta tashkil etish, tugatish yoki bankrotlik bosqichida bo'lsa;</li> <li>- Xaridor bilan sud yoki xakamlik majorasi bo'lsa;</li> <li>- "Insofsiz ijrochilarning yagona ro'yhati"ga kiritilganlar;</li> <li>- soliq va boshqa majburiy to'lovlari bo'yicha qarzdorliklarga ega bo'lsa;</li> <li>- soliqlarning imtiyozli rejimini taminlaydigan va / yoki moliyaviy operasiyalar paytida (offshor zonalar) oshkor qilish va taqdim etishni nazarda tutmaydigan davlatlar yoki xududlarda ro'yxatdan o'tgan va bank xisobvaraqlarga ega bo'lgan;</li> </ul>
		4.3	<p>Buyurtmachi ishtirokchini xaridlar tartibida qatnashishdan chetlatishga xaqli:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- ishtirokchi tanlov jarayonida qaror qabul qilish uchun yoki boshqa xarakatlar uchun to'g'ridanto'g'ri yoki bilvosita xaridorning har qanday amaldagi yoki sobiq mansabdar shaxsiga, yoki xodimiga, yoki boshqa davlat organiga har qanday shaklda, qimmatbaho narsa, yoki xizmat taklif qilsa;</li> <li>- ishtirokchi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligini buzgan holda adolatsiz raqobat ustunligiga yoki manfaatlar to'qnashuviga ega.</li> </ul>
<b>5</b>	<b>Tanlov tili, o'lchov birligi.</b>	5.1	Tanlov taklifi va ishtirokchi bilan buyurtmachi o'rtasida amalga oshiriladigan barcha tegishli yozishmalar (hujjatlар) o'zbek tilida bo'lishi kerak. Tanlov taklifi boshqa tilda bo'lishi mumkin, agar u o'zbek tiliga to'g'ri tarjima qilingan bo'lsa. Tanlov taklifi matnida nomuvufoqliklar aniqlangan taqdirda, bir nechta til ishlatalganda, o'zbek tili ustun deb hisoblanadi. Texnik hujjatlarni ingliz tilida taqdim etishga ruxsat beriladi.

			Tanlov taklifida umumiy qabul qilingan o'lchov tizimidan foydalanish kerak.
<b>6</b>	<b>Tanlov taklifi va uni bajarish tartibi</b>	6.1	Portalda e'lon qilingan tanlov ishtirokchilari taklifni belgilangan tartibda <a href="http://etender.uzex.uz">http://etender.uzex.uz</a> saytiga joylaydi.
		6.2	Tanlov ishtirokchisi:
			Yakka tartibdagи tadbirkor yoki resident faqatgina electron raqamli imzodan (ERI) foydalanib ro'yhatdan o'tishi mumkin bo'ladi.
			<ul style="list-style-type: none"> <li>- Taqdim etilgan malumotlar va xujjatlarning to'g'riliги учун javobgardir;</li> <li>- Faqat bitta taklif berish huquqiga ega;</li> </ul>
			<ul style="list-style-type: none"> <li>- Takliflarni berish muddati tugagunga qadar berilgan taklifni qaytarib olish yoki o'zgartirish huquqiga ega.</li> </ul>
		6.3	<p>Tanlov taklifi ikki qismidan iborat:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- Texnik qism buyurtmachining texnik talablariga javob berishi va taklif etilayotgan tovarlarning batafsil tavsifini o'z ichiga olishi kerak ;</li> <li>- Narxni qismi tanlov shartlariga mos kelishi va tanlov taklifining narx qismida ko'rsatilgan talablar (shu jumladan maxsulot nomi birligi narxi barcha soliqlar to'lov shartlari taklif muddati va xakozolarni o'z ichiga olgan) bo'lishi kerak.</li> </ul>
		6.4	Tanlov bo'yicha takliflar komiissiya a'zolari tomonida elektron ko'rinishda <a href="http://www.etender.uzex.uz">www.etender.uzex.uz</a> saytida ko'rib chiqiladi.
		6.5	Tanlov ishtirokchilarining takliflarini amal qilish muddati takliflar tugagan kundan boshlab kamida 60 kun bo'lishi kerak.
<b>7</b>	<b>Tanlov takliflarini qabul qilish muddatini uzaytirish</b>	7.1	Buyurtmachi tanlov takliflarini qabul qilish muddatlarini uzaytirishi mumkin emas, faqatgina tanlovnı qayta e'lon qilishi mumkin.
		7.2	Tanlovlarni qayta e'loni axborot portalida joylashtiriladi va agar kerak bo'lsa, xaridor veb-saytida yoki boshqa ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi.
<b>8</b>	<b>Tanlovxujjatlariga o'zgartirishlar kiritish</b>	8.1	Zarur bo'lganda, buyurtmachi tender hujjalariга o'zgartirish kiritish mu'ddati tugashidan uch kundan kechiktirmay qabul qilinishi mumkin.
		8.2.	Tanlov hujjalariга o'zgartirishlar kiritish jarayonida mahsulot (ish, xizmat) yoki ularning xususiyatlarini o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi. Agar tanlov hujjalariга

			takliflarni taqdim etish muddati tugagunga qadar o'zgartirishlar kiritilgan bo'lsa, tanlov hujjatlariga o'zgartirishlar kiritilgan kundan boshlab kamida o'n kunga uzaytiriladi. Shu bilan birga, agar e'londa ko'rsatilgan ma'lumotlar o'zgartirilgan bo'lsa, tanlov e'londa o'zgartirishlar kiritiladi.
9	<b>Tanlov takliflari bilan konvertlarni ochish tartibi ularni baxolash tartibi va mezonlari</b>	9.1	Buyurtmachi komissiya a'zolari ro'yxatini shakllantirishdan avval, har bir komissiya a'zosi haqida ma'lumot kiritib chiqish bilan birga unga shaxsiy kabinet yaratadi. Buning uchun buyurtmachi shaxsiy kabinetning "Komissiya" bo'limiga kirib "Qo'shish" tugmasini bosadi.
			Komissiyaning har bir a'zosi uchun shaxsiy kabinet yaratilgandan so'ng, har bir a'zo ro'yxatdan o'tkazish jarayonida ko'rsatilgan elektron pochtaga tizim shaxsiy kabinetni faollashtirish uchun havola yuboradi. Shaxsiy kabinetga birinchi marotaba kirlayotganda xarid komissiyasining har bir a'zosi, shu jumladan uning raisi ishtirokchilar bilan affillanganlik xususiyatiga ega aloqalari mavjudligi to'g'risida ma'lumotlarni kiritishi shart.
		9.2	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Ball usuli – tanlov taklifining texnika va kvalifikatsion hamda narh qismlarini baholashni hisobga olgan holda eng yuqori ball to'plagan ishtirokchini g'olib sifatida aniqlaydi.</li> <li>- Eng past narx usuli – tanlov takliflarining texnik qismini baholash natijalariga ko'ra elektron tanlovda ishtirok etishni davom ettirishga ruxsat berilgan ishtirokchilar orasidan eng past narhni taklif etgan ishtirokchini</li> </ul>
		9.3	Tanlov komissiyasi tanlov g'olibini aniqlash bo'yicha rad etilmagan takliflarni tanlov hujjatlarida ko'rsatilgan mezonlar asosida baholaydi.
		9.4	<p>Agar tanlov ishtirokchilari takliflarni turli xil valyutalarda taqdim etsa, taxlil paytida taqdim etilgan takliflar miqdori O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kursi bo'yicha yagona valyutada xisob-kitob qilinadi.</p> <p>Tanlov takliflarini baholash jarayonida tanlov komissiyasining ishchi organi ishtirokchilarga taklifda ko'rsatilgan har qanday ma'lumotni tasdiqlash yoki aniqlashtirish to'g'risida yozma so'rov yuborish huquqiga ega. Bunday so'rovlarni olgandan so'ng, ishtirokchilar ishchi organiga yozma ravishda javob berishlari va so'ralgan ma'lumotlarni taqdim etishlari kerak. Bunday yozishmalar jarayonida taklifning texnik qismiga biron bir o'zgartirish kiritishga yo'l qo'yilmaydi.</p>
		9.5	Tanlov hujjatlari muvvafaqqiyatli joylashtirilgandan so'ng, moderatsiyaga yuboriladi. Tanlov hujjatlari moderatsiyadan muvvafaqqiyatli o'tgandan so'ng tizim tanlov hujjatini avtomatik tarzda komissiya a'zolariga yuboradi.
		9.6	Tanlov hujjatlari komissiya a'zolari tomonida ko'p ovoz yi'gish yo'li bilan tasdiqlanadi. Kommisiya a'zolarining kotibidan tashqari har biri bir marotabadan ovoz berish huquqiga ega.

		9.7	Agar komissiya a'zolarida tanlov hujjatlari bo'yicha savollar yuzaga kelsa harid komissiyasining a'zolari va ma'sul kotibi o'zaro chat orqali muloqot qilishlari mumkin bo'ladi.
		9.8	Tanlov hujjatlarida va taklifda ko'rsatilgan mezonlar asosida shartnomani bajarishning eng yaxshi shartlarini taklif qilgan tanlov ishtirokchisi g'olib deb topiladi
		9.9	Tanlov ishtirokchisi taqdim etgan hujjatlarda ko'rsatilgan ma'lumotlar ishonchli bo'lmasligi aniqlangan taqdirda, tanlov komissiyasi bunday ishtirokchini tanlovda qatnashishdan chetlatishga haqli.
		9.10	Agar arifmetik yoki boshqa xatolar mavjud bo'lsa, xarid komissiyasi tanlov taklifini rad etishga haqli
		9.11	Taklif, agar u qonun talablari, me'yoriy huquqiy hujjatlar va tanlov hujjatlari talablariga javob bersa, to'g'ri bajarilgan deb topiladi.
		9.12	Ishchi organ, agar uni topshirgan ishtirokchi Qonunda va Qarorlarda belgilangan talablarga javob bermasa yoki tanlov ishtirokchisining taklifi tanlov hujjatlari talablariga javob bermasa, taklifni rad etadi.
		9.13	Tanlov takliflarini baholash jarayonida ishchi organ ishtirokchilardan o'z takliflari to'g'risida tushuntirishlar so'rashi mumkin. Bu tartib rasmiy tarzda, yozma ravishda belgilangan tartibda tanlov tashkilotchisi orqali amalga oshiriladi. Tushuntirish jarayonidataklifning mohiyatini, shuningdek narxini o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi. Tanlov xujjatlari va takliflarda ko'rsatilgan mezonlar asosida shartnomani bajarish uchun eng yaxshi sharotlarni taklif etgan ishtirokchi g'olib deb topiladi.
		9.14	Tanlov shartlarida narxlarni turli valyutalarda taqdim etish ko'zda tutilgan hollarda, chet el va mahalliy ishtirokchilarning narxlarini to'g'ri solishtirish, chet el valyutasidagi takliflarni to'g'ri baholash uchun, taklifni taqdim etgan ishtirokchi chet el valyutasida sotilgan tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) solinadigan O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidagi nazarda tutilgan barcha turdagilari soliqlar, yig'imlar, majburiy to'lovlarning amaldagi stavkalari va foizlari ko'rsatilishi shart.
		9.15	Takliflarni ko'rib chiqish va baholash natijalari takliflarni ko'rib chiqish va baholash bayonnomasida qayd etiladi.
		9.16	Agar komissiya a'zolarida tanlov hujjati bo'yicha e'tirozlar mavjud bo'lsa, buyurtmachida tanlov hujjatlari bir ovozdan tasdiqlanmaganligi haqida ma'lumot aks etadi, buyurtmachi kerakli, buyurtmachi kerakli ma'lumotlarni o'zgartirib, qayta moderatsiyaga jo'natadi, tanlov hujjati moderatsiyadan muvaffaqiyatli o'tkandan so'ng tizim avtomatik tarzda ularni komissiyaga ko'rib chiqish uchun yuboradi. Komissiya a'zolari tanlov hujjatlarni qaytadan ko'rib chiqadilar. Tanlov hujjatlari komissiya tomonidan bir ovozdan ma'qullangandan so'ng, komissiya kotibi yoki raisi buyurtmachiga yuboradi.

		9.17	Tanlov shartlarida narxlarni turli valyutalarda taqdim etish nazarda tutilgan xollarda, chet ellik va maxalliy ishtirokchilarning narxlarini to'g'ri taqqoslash, chet el valyutasidagi takliflarni to'g'ri baxolash uchun chet el valyutasida taklif bergan ishtirokchi chet el valyutasida sotiladigan tovar (ish, xizmat) larga solinadigan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi nazarda tutilgan amaldagi barcha turdagи soliqlar, yig'imlar, majburiy to'lovlarning joriy stavkalari va foizlarini ko'rsatishi shart. Ishtirokchi ushbu masala bo'yicha berilgan ma'lumotlarning to'g'riliği va to'liqligi uchun javobgardir.
		9.18	Komissiya a'zolari tomonidan tasdiqlangan tanlov hujjati komissiya kotibi yoki raisi tomonidan buyurtmachiga yuboriladi.
		9.19	Harid protsedurasi natijalariga ko'ra, alohida har bir mahsulot (ish, xizmat) bo'yicha bir nechta g'oliblar yoki umumiy natija orqali aniqlanishi mumkin.
		9.20	Ishtirokchilar tomonidan kelib tushgan takliflar tanlov o'tkazish bo'yicha e'londa ko'rsatilgan talablar asosida tanlov taklifining texnik qismini miqdoriy ko'rsatkichlarini va narx qismini baholash elektron tizim tomonidan avtomatik ravishda amalga oshiriladi. Taklifning texnik qismining miqdori ko'rsatkichlarga ega bo'limgan mezonlarini (ekspert mezonlari) baholash va taqqoslash xarid komissiyasi tomonidan amalga oshiriladi.
		9.21	Tanlov hujjatlarida belgilangan shartlardan kelib chiqib elektron tizim avtomatik ravishda: <ul style="list-style-type: none"> <li>- tanlov taklifining texnik va narx qismlarini baholashni hisobga olgan holda eng yuqori ball to'plagan ishtirokchini (ball usulidan foydalanganda)</li> <li>- tanlov takliflarining texnik qismini baholash natijalariga ko'ra elektron tanloyda ishtirok etishni davom ettirishga ruxsat berilgan ishtirokchilar orasidan eng past narxni taklif etgan ishtirokchini (eng past narx usulidan foydalanganda) g'olib sifatida aniqlaydi.</li> </ul>
10	<b>Maxfiylik saqlanishi bo'yicha tomonlarning javobgarligi</b>	10.1	O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan maxfiylikka rioya qilish uchun quyidagilarga javobgarlik yuklatilgan: ishchi organi tarkibiga kiruvchi, kiruvchi takliflar hisobini yuritadigan, ularning xavfsizligi va maxfiyligini ta'minlaydigan shaxslar; <ul style="list-style-type: none"> <li>- komissiya raisi va a'zolari, shuningdek takliflarni o'rganish uchun tuzilgan ishchi guruh a'zolari, ishtirokchilar, komissiyaning boshqa a'zolari va jalb qilingan ekspertlar bilan til biriktirish, axborotni oshkor qilish, shuningdek boshqa noqonuniy xatti-harakatlar uchun tashkil qilingan ishchi gurux a'zolari.</li> </ul>
			- barcha maxfiy texnik ma'lumot (chizmalar, standartlar va x.k) buyurtmachining tijorat siri bo'lib uni oshkor qilmaslik to'g'risida kelishuv tuzish orqali ishtirokchilarga taqdim etiladi.

			Tijorat sirini tashkil etuvchi ma'lumotlar, Ishtirokchi tomonidan oshkor qilingan xolatda, va bu xolat Buyurtmachiga zarar keltirsa, Buyurmachi ushbu zarar miqdorini to'laligicha qoplab berilishini Ishtirokchidan talab qilish xuquqiga ega va o'z navbatida Ishtirokchi zarar miqdorini, yo'qotilgan foyda miqdorini xisobga olgan xolda, Buyurtmachiga to'laligicha qoplab berishi shart.
			Ishtirokchi, tijorat siri bo'lган texnik ma'lumotlarni oshkor qilinishi, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq, fuqorolik, ma'muriy va jinoiy javobgarlikka olib kelishi xaqida ogohlantirilganligini tasdiqlaydi
		10.2	Shartnoma bo'yicha majburiyatlar (miqdor, sifat va boshqa texnik parametrlar bo'yicha) ni bajarmagan tanlov g'olib O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga va/yoki imzolangan shartnomaga muvofiq javobgarlikka tortiladi.
<b>11</b>	<b>Boshqa shartlar</b>	11.1	Agar tanlovda ilgari O'zbekiston Respublikasiga yetkazib bermagan ishlab chiqaruvchining mahsuloti taklif qilinsa, tanlov komissiyasi tanlov ishtirokchisidan ushbu mahsulotlar to'g'risida uchinchi shaxsning fikrmuloxazalarini so'rashga haqlidir.
		11.2	O'tkaziladigan tanlov bo'yicha tushunchaga ega bo'lish uchun tanlovda qatnashish istagini bildirgan ishtirokchilar ishchi organga murojaat qilish huquqiga ega.
		11.3	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Elektron tanlov ishtirokchisida tanlov hujjatlari bo'yicha savollar yuzaga keladigan bo'lsa buyurtmachiga ochiq elektron chat orqali tanlov takliflarini berish muddati tugaydigan sanadan kamida ikki kun oldin murojaat qilishi mumkin bo'ladi.</li> <li>-Buyurtmachi so'rov kelib tushgan sanadan e'tiboran ikki kun ichida ushbu so'rovga ochiq elektron chat orqali tushuntirish yuborishi shart.</li> </ul>
		11.4	<p>Tanlov komissiya tomonidan quyidagi holatlarga o'tkazilmagan deb e'lon qilinishi mumkin:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- tanlovda bitta ishtirokchi yoki hech kim qatnashmagan bo'lsa;</li> <li>- agar takliflarni ko'rib chiqish natijalariga ko'ra, komissiyasi tomonidan tanlov hujjatlari talablariga javob bermaganligi sababli, barcha takliflarni rad etilgan bo'lsa;</li> </ul>
		11.5	Buyurtmachi g'olib taklifni qabul qilishdan oldin istalgan vaqtida tanlovnı bekor qilishga haqli. Tanlov bekor qilingan taqdirda, buyurtmachi ushbu qarorning asosli sabablarini maxsus axborot portalida e'lon qiladi.

<b>12</b>	<b>Shartnoma tuzish</b>	12.1	Tanlovda natijalariga ko'ra, ishtirokchilar tomonidan berilgan tanlov hujjatlari va takliflarda ko'rsatilgan shartlar asosida shartnoma ko'rsatilgan shartlar asosida tuziladi.
		12.2	Tanlov komissiyasining qarori bilan tanlov g'olib deb e'lon qilingan ishtirokchiga g'olib aniqlangan kundan boshlab 5 ish kun ichida tanlov komissiyasining qarori to'g'risida yozma xabarnoma yuboriladi. Buyurtmachi va tanlov g'olib tanlov tugagan kundan boshlab <b>10 (o'n)</b> kun ichida shartnoma tuzishlari shart.
		12.3	Agar tanlov g'olib tanlov shartlari bo'yicha shartnoma tuzishdan bosh tortsa, shartnoma tuzish huquqi zaxirada turgan ta'minotchiga o'tadi. Shu bilan birga, zahira ta'minotchi tanlov g'olib tomonidan taklif etilgan narx bo'yicha shartnoma tuzishi yoki shartnoma tuzishdan bosh tortishi mumkin.

## **II. TEXNIK QISM**

“UzAuto Motors” AJ Xorazm viloyati filiali hududida joylashgan yozgi oshxona binosini joriy ta’mirlash



deffekt akt.pdf



tex zadaniya.pdf



Хоразм УЗ АВТО  
MOTOPC.pdf

Taqdim etilayotgan tovarlarning miqdori va hajmi (xizmatlar, ishlar hajmi) va ularga tavsif (talablar).

Xizmatlarni taqdim etish (ishlarni bajarish) Ishtirokchi tomonidan tanlov hujjatlarining texnik qismining 1-ilovasi talablariga muvofiq "Texnik topshiriq" (bundan buyon matnda - TT) asosida amalga oshirilishi kerak.

**Tovarlarni, ishlarni, xizmatlarni yetkazib berish muddati (yoki jadvali).**

Bajarish muddati shartnomaga bo'yicha oldindan to'lov kunidan boshlab 30 ish kunini tashkil etadi.

Texnik qismga №1 ilova: Texnik vazifa (TV)

## 1. NARX QISMI

Tanlov taklifida ko'rsatilgan narxlar eng past narxdan oshmasligi kerak va keyinchalik o'zgartirilishi mumkin emas.

Ishtirokchi tanlovdagi narxlarni QQS bilan, shuningdek QQSsiz taqdim etishi shart.

Narxlar taklifi elektron shaklda etender.uzex.uz sayti orqali taqdim etiladi.

Ishtirokchi tovarlar (xizmatlar, ishlar) birligining narxini ko'rsatishga majburdir.

Agar xaridor narxlar jadvalining bat afsil shaklini taqdim etsa, ishtirokchi to'ldirilgan jadvalni elektron shaklda taqdim etishga majbur bo'ladi.

Barcha boshlang'ich narxlar formulalari kuzatilishi kerak va narxning tarkibiy qismlari shaffof va tushunarli bo'lishi kerak. Yashirin formulalar yoki narx komponentlari bo'lmasligi kerak.

Buyurtmachi ishtirokchi tomonidan asosiy narx taklifiga qo'shimcha yoki uning o'rniga taklif qilinadigan muqobil narx takliflarini ko'rib chiqmaslik huquqini o'zida saqlab qoladi.

1	Boshlang'ich narxi	Qurilish-ta'mirlash ishlarining boshlang'ich bahosi <b>294 754 549</b> so'mni QQS bilan tashkil qiladi.
2	Moliyalashtirish manbai	O'z mablag'lari xisobidan
3	To'lov sharti	Shartnoma imzolangan kundan boshlab 10 (o'n) bank ish kuni ichida shartnomaning umumiy miqdoridan 15% (o'n besh) oldindan to'lov, shartnomaning umumiy miqdironing 85% (sakson besh) miqdori ishlar bajarilganligi to`g`risidagi akt tuzilib tasdiqlangandan so`ng va hisob fakturani imzolagandan keyin to`lov bajariladi.
4	To'lov shakli	O'zbekiston Respublikasining pul birligi - So'm
5	Bajarish muddati	Shartnoma bo'yicha oldindan to'lash kunidan boshlab <b>60 (oltmish) ish kuni</b>
6	Mahsulotni yetkazib berish joyi (loyiha-smeta hujjatlari ekspert hulosasi bilan)	Pitnak sh. Xazarasp ko'chasi 1 uy
7	Amal qilish muddati	31.12.2022 yil gacha

Forma №6